

O‘ZBEK TILINING BIRIKUVCHANLIK LUG‘ATI TO‘G‘RISIDA MUHIM MANBA VA AMALIY AHAMIYAT

Hamidova Farangiz Obid qizi

Axborot texnologiyari va menejment universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilining birikuvchanlik lug‘ati haqida so‘z boradi. Birikuvchanlik lug‘atining mohiyati, uning ahamiyati va amaliy qo‘llanilishi tushuntiriladi. Shuningdek, bunday lug‘atlarning o‘zbek tilida mavjudligi va kelajakda yaratilishi zarurati tahlil qilinadi. Maqola tilshunoslar, tarjimonlar, yozuvchilar va o‘zbek tilini o‘rganayotgan shaxslar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Annotation: This article is about the attachment of Uzbek fluency. The essence of the attachment dictionary, its importance and practical application is explained. It is also analyzed that such dictionaries are available in Uzbek and the need to create in the future. The article can be useful for linguists, translators, writers and Uzbeks.

Kalit so‘zlar: birikuvchanlik lug‘ati, o‘zbek tili, kolokatsiya, tilshunoslik, tarjima, til madaniyati, adabiy til, leksik birliklar.

Keys: The integrity dictionary, Uzbek language, kolokation, linguistics, translation, literature, literary language, lexical units.

KIRISH

Til – bu faqat alohida so‘zlar to‘plami emas, balki ularning bir-biri bilan bog‘lanish tizimidir. So‘zlarning bir-biri bilan qanday birikishi va tabiiy qo‘llanilishi tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini belgilaydi. O‘zbek tilida ham so‘zlarning o‘zaro mosligi, birikish qonuniyatlari muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, birikuvchanlik lug‘ati (kolokatsion lug‘at) tilshunoslar, tarjimonlar, yozuvchilar va jurnalistlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Birikuvchanlik Lug‘ati Nima?

Birikuvchanlik lug‘ati – bu so‘zlarning o‘zaro tabiiy kombinatsiyalarini o‘z ichiga olgan lug‘atdir. U an’anaviy izohli yoki tarjima lug‘atlaridan farqli o‘laroq, so‘zlarning leksik jihatdan qanday bog‘lanishini ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek tilida:

"Qattiq og‘riq" – to‘g‘ri (chunki "qattiq" sifati "og‘riq" bilan tabiiy birikadi).

"Og‘ir og‘riq" – noto‘g‘ri (chunki "og‘ir" odatda yuk yoki mas’uliyat bilan ishlatiladi). Bunday lug‘atlar so‘zlarning aniq ma’nolarini tushunish, ifoda aniqligini ta’minlash va to‘g‘ri nutq hosil qilishga yordam beradi.

ASOSIY QISM

O‘zbek Tilida Birikuvchanlik Lug‘atining Aholi Uchun Ahamiyati.

1. Til madaniyatini oshirish – Adabiy til normalariga mos holda gapirish va yozish imkonini beradi.

2. Tarjimada yordami – Matnlarni boshqa tillarga tarjima qilishda tabiiy iboralarni ishlatishga yordam beradi.

3. Adabiyot va jurnalistika uchun foydali – Asarlar va maqolalar yozishda so‘z birikmalarining to‘g‘ri ishlatilishini ta‘minlaydi.

4. Chet tilini o‘rganishda yordamchi manba – O‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijliklar yoki boshqa til vakillari uchun juda foydali.

Birikuvchanlik lug‘atlaridan olinadigan sintaktik ma‘lumotlar tabiiy tillar elektron dasturlarda muhim (sun‘iy tillar yaratilsa ham, avvalo, elektron dasturlarga mos kelishi hisobga olinishi shubhasiz) hisoblanadi. Chunki birikuvchanlik haqidagi maxsus qo‘shimcha ma‘lumotlar birikma ma‘nosidagi polisemantiklik bilan bog‘liq noaniqliklarni bartaraf etadi, aynan mana shu tipdagi noaniqliklar avtomatik qidiruv bilan bog‘liq asosiy muammolardan biridir.

O‘zbek Tilida Birikuvchanlik Lug‘ati Ishlab Chiqilganmi?

Hozirgi kunga kelib, o‘zbek tilida to‘liq shakllangan birikuvchanlik lug‘ati kam uchraydi. Asosan, tarjima va izohli lug‘atlar mavjud bo‘lib, ular so‘zlarning asosiy ma‘nolarini ochib beradi. Biroq, birikuvchanlik lug‘ati yaratish bo‘yicha ayrim ilmiy ishlanmalar olib borilmoqda. Kelajakda sun‘iy intellekt va tilshunoslik tadqiqotlari yordamida bunday lug‘atlar kengroq ishlab chiqilishi kutilmoqda.

Lug‘atlarda lingvistik nuqtayi nazardan so‘zlarni aniq tavsiflash tildagi so‘zlar alohida holda emas, balki boshqa so‘zlar bilan bog‘liqlikda mavjud bo‘lishiga asoslanadi. Lug‘atlashtirishda bu xususiyatlarni hisobga olish leksik birliklarning turli xususiyatlarini, shu jumladan, birikish xususiyatlarini yanada izchil va tizimli aks ettirishga imkon yaratadi. Shu o‘rinda so‘z ma‘nosi va uning birikuvchanligi XX asr o‘rtalaridan boshlab dunyo tilshunosligida eng dolzarb masala bo‘lib kelayotganligi ta‘kidlash joiz. Bu lug‘aviy birliklarning matndagi o‘zaro bog‘liqligining o‘ziga xosligi va muqarrarligi ularning deyarli barcha paradigmatic munosabatlarida aks etishi bilan bog‘liq.

Darhaqiqat, birikuvchanlikning leksikologiya, sintaksis kabi bo‘limlar bilan bog‘liqligi uning muayyan tilda batafsil tadqiq qilinishi sanalgan tilshunoslik sohalari haqida ham juda qimmatli ilmiy xulosalar chiqarishga ko‘maklashadi. So‘z ma‘nosi tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarda so‘zlar birikuvchanligidan foydalanish ham aynan shunga asoslanadi. Shunday qilib, so‘zni semantik tahlil qilish vositalaridan biri sifatida so‘zlar birikuvchanligining ahamiyati juda katta. Ammo hozirgi kunda bu sohada amaliy va nazariy tadqiqotlarning kamligi birikuvchanlik lug‘atlari va ularga oid tadqiqotlarning zarurligini ko‘rsatadi.

Talaba so‘zining birikuvchanlik lug‘ati.

1.Sifat+talaba

Aqlli talaba, erinchoq talaba, iste’dodli talaba, tirishqoq talaba, dangasa talaba.

2.talaba+fel

Talaba o‘qiydi, talaba izlanadi, talaba imtihon topshiradi, talaba tadqiqot qiladi.

3.talaba+joy

Talaba kutubxonada, talaba universitetda, talaba yotoqxonada.

XULOSA

O‘zbek tilining birikuvchanlik lug‘ati tilimizni yanada mukammal o‘rganish, to‘g‘ri nutq shakllantirish va tarjimonlar uchun muhim manba bo‘lishi mumkin. Bunday lug‘at yaratish tilshunoslar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois, tilshunoslar va mutaxassislar tomonidan ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borilishi va bunday lug‘atlarning keng jamoatchilikka taqdim etilishi muhimdir. Zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri so‘zlarning birikuvchanligi masalasidir. So‘zlarning birikuvchanlik xususiyati deganda uning gap, so‘z birikmasi yoki boshqa sintaktik qurilmada boshqa so‘zlar qurshovida qo‘llanishidir. Bu xususiyat ma’lum bir tilning leksik, grammatik va boshqa lingvistik qoidalari bilan tartibga solinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Namdu.uz
- 2.So‘zlarning birikuvchanlik lug‘ati,Baxtiyor Mengliyev:ToshDO‘TAU.
Javlon Ibragimov:QarDU.
- 3.O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar lug‘ati.